

Oriental Journal of Education



TASHKENT FAIRS IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES: FACTORS OF ECONOMIC EXCHANGE, CULTURAL INTEGRATION, AND COLONIAL MODERNIZATION

Vohid Rajabov

Lecturer at the Department of Socio-Political Sciences
Renaissance Education University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tashkent fairs, Turkestan region, economic exchange, cultural transformation, urbanization, modernization, handicrafts, consumer culture, Russian Empire, intercultural communication, social integration, folk performances.

Received: 10.07.26

Accepted: 11.07.26

Published: 12.07.26

Abstract: This study examines the role of the Tashkent fairs in the socio-economic and cultural life of the Turkestan region during the late nineteenth and early twentieth centuries. The fairs are analyzed not only as centers of commercial exchange but also as important social spaces where intercultural communication, theatrical and circus performances, folk entertainments, and craft exhibitions took place. Special attention is paid to the impact of the Russian Empire's economic policy on processes of regional integration, urbanization, and modernization. The results demonstrate that the Tashkent fairs functioned as a multifunctional historical institution combining economic exchange with cultural transformation.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT YARMARKALARI: IQTISODIY ALMASHINUV, MADANIY INTEGRATSIYA VA MUSTAMLAKACHILIK MODERNIZATSIYASI OMILLARI

Vohid Rajabov

Renessans ta'lim Universiteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Toshkent yarmarkalari, Turkiston o'lkasi, iqtisodiy almashinuv, madaniy transformatsiya, urbanizatsiya, modernizatsiya, hunarmandchilik, iste'mol madaniyati, Rossiya imperiyasi, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy integratsiya, xalq tomoshalari.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda XIX asr II yarmi XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalarining Turkiston o'lkasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Yarmarkalar nafaqat savdo-sotiq markazi, balki madaniyatlararo muloqot, xalq tomoshalari, teatr va sirk chiqishlari hamda hunarmandchilik mahsulotlari namoyishi amalga

oshirilgan muhim ijtimoiy makon sifatida yoritiladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati ta'sirida mintaqaviy integratsiya, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining shakllanishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy almashinuv va madaniy transformatsiyalarni birlashtirgan ko'p funktsiyali tarixiy institut sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

ЯРМАРКИ ТАШКЕНТА КОНЦА XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА: ФАКТОРЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБМЕНА, КУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ И КОЛОНИАЛЬНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ

Воҳид Раджабов

Преподаватель кафедры социально-политических наук

Университета образования «Ренессанс»

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ташкентские ярмарки, Туркестанский край, экономический обмен, культурная трансформация, урбанизация, модернизация, ремесленничество, культура потребления, Российская империя, межкультурная коммуникация, социальная интеграция, народные зрелища.	Аннотация: В данном исследовании рассматривается роль ташкентских ярмарок конца XIX – начала XX века в социально-экономической и культурной жизни Туркестанского края. Ярмарки анализируются не только как центры торгового обмена, но и как важные общественные пространства, где осуществлялись межкультурные коммуникации, театральные и цирковые представления, народные зрелища и выставки ремесленных изделий. Особое внимание уделяется влиянию экономической политики Российской империи на процессы региональной интеграции, урбанизации и модернизации. Результаты исследования показывают, что ташкентские ярмарки функционировали как многопрофильный исторический институт, объединяющий экономический обмен и культурные трансформации.
---	---

Kirish. XIX asrning II yarmida Toshkentda tashkil etilgan yarmarkalar madaniy hayotga ham kata ta'sir o'tkazgan. Yarmarka vaqtlarida Sahnaviy tomoshalar va teatr chiqishlari yarmarkalar madaniy hayotining yana bir muhim qismi bo'lgan. Xususan, qo'g'irchoq teatrlari haqida quyidagicha qayd etilgan. "Mahalliy aholi orasida keng tarqalgan qo'g'irchoq tomoshalari yarmarka kunlarida tez-tez tashkil etilgan bo'lib, ular ham ko'ngilochar, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan"[1– C. 4.]. Bu tomoshalar xalq og'zaki ijodi va axloqiy tarbiya vositasi sifatida xizmat

qilgan. Shu bilan birga, rus teatr truppalari ham yarmarkalarda ishtirok etgan. Masalan, “Toshkentda yarmarka kunlarida rus teatr truppalari tomonidan sahnaviy namoyishlar uyushtirilib, mahalliy aholi yevropa sahna madaniyati bilan tanishgan”[2– C. 3.]. Yarmarkalarda sirk va ko‘chma tomoshalar ham o‘tkazilgan. “Sayyor sirk artistlari va fokuschilar yarmarkalarda chiqishlar qilib, tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Bu holat shahar madaniy hayotiga yangi ko‘ngilochar shakllarning kirib kelganini ko‘rsatadi. Eng muhim jihat shundaki, barcha ushbu madaniy tadbirlar bir vaqtning o‘zida bir makonda amalga oshirilgan. N.Xalfin shunday ta’kidlaydi, “Turkiston yarmakalari turli madaniy an’analar va san’at shakllari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan noyob makon sifatida namoyon bo‘lgan”[3– C. 214.]. Masalan, mahalliy aholi tomonidan tayyorlangan gilamlar, kashtachilik buyumlari, misgarlik mahsulotlari va milliy kiyimlar ommaga ko‘rsatilgani qayd etiladi. Ayrim kunlarda xalq sayllari tashkil etilib, hofizlar va baxshilar chiqish qilgan. Bu orqali mahsulotning iqtisodiy qiymati bilan bir qatorda uning estetik va madaniy qadrini ham targ‘ib qilish maqsad qilingan[4– C. 3.]. Mazkur holat Turkiston yarmakalarining iqtisodiy almashinuv va madaniy ishlab chiqarish jarayonlari o‘zaro uyg‘unlashgan ko‘p funksiyali ijtimoiy makon sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Qo‘g‘irchoq teatrlari, rus sahna jamoalari, sayyor sirk chiqishlari, xalq sayllari hamda musiqiy tomoshalarining yarmarka muhiti bilan bog‘lanishi savdo jarayonini oddiy iqtisodiy faoliyat chegarasidan chiqarib, ommaviy madaniy tajribaga aylantirgan. Ayniqsa, mahalliy va yevropa sahna an’analarining bir hududda namoyon bo‘lishi turli madaniy kodlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirgan va shaharlik aholining estetik didi hamda tomosha madaniyatini kengaytirgan. Shu bilan birga, hunarmandchilik mahsulotlarining namoyishi, hofiz va baxshilar chiqishlari tovarning bozor qiymati bilan bir qatorda uning ramziy, badiiy va madaniy ahamiyatini ham ommalashtirgan. Natijada yarmarkalar iqtisodiy daromad ishlab chiqaruvchi savdo maydoni bilan birga, madaniy iste’molni shakllantiruvchi va shahar madaniyatini modernizatsiya qiluvchi institut sifatida namoyon bo‘lgan.

Yarmarkalarda milliy kiyim va turmush madaniyatining tarqalishi ham kuzatilgan. XIX asr oxiridagi etnografik tavsiflarda Toshkent savdo yig‘inlarida Buxoro va Samarqand ipak matolari, Qo‘qon atlaslari, qozoq kigizlari va rus fabrikalarida ishlab chiqarilgan gazlamalar bir vaqtda sotilgani qayd etiladi. Bu jarayon natijasida kiyinish uslublari o‘zaro ta’sirga kirib, shahar madaniyatida yangi estetik qarashlar shakllangan[5– C. 88-92.]. Mazkur jarayon yarmakalarning iste’mol bozori bilan bir qatorda kundalik madaniyat va estetik me’yorlarni shakllantiruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Turli hududlarda ishlab chiqarilgan matolar va kiyim-kechak mahsulotlarining bir makonda savdoga chiqarilishi nafaqat iqtisodiy almashinuvni kengaytirgan, balki kiyinish odatlari, did va ijtimoiy reprezentatsiya shakllarining o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Hunarmandchilik hamda rus fabrikalari mahsulotlarining birgalikda muomalaga kirishi natijasida an’anaviy va tashqi madaniy unsurlar sintezi yuzaga kelgan. Shu orqali

yarmarkalar tovarlar harakatini ta'minlovchi iqtisodiy maydon bo'lish bilan birga, shahar muhitida yangi turmush uslubi va vizual madaniyatning shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy makon vazifasini ham bajargan.

Toshkent yarmarkalari Rossiya imperiyasidagi Nijniy Novgorod yoki Orenburg yarmarkalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Agar markaziy Rossiya yarmarkalari asosan sanoat mahsulotlari savdosiga yo'naltirilgan bo'lsa, Toshkent yarmarkalari agrar-xomashyo va madaniy almashinuv funksiyalarini birlashtirgan kompleks tizim sifatida faoliyat yuritgan. Toshkent yarmarkalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-tarixiy hayotida ko'p qirrali rol o'ynagan. Ular madaniyatlararo muloqot, ma'rifiy jarayonlar, ijtimoiy integratsiya va urbanizatsiya kabi jarayonlarning muhim omiliga aylangan. Shu bilan birga, ular mustamlakachilik iqtisodiy tizimining tarkibiy elementi sifatida ham faoliyat yuritgan bo'lib, bu holat yarmarkalarning murakkab va ziddiyatli tarixiy mohiyatini namoyon etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalari Turkiston o'lkasida iqtisodiy almashinuv bilan bir qatorda ijtimoiy va madaniy transformatsiyalar sodir bo'lgan muhim makonlardan biri sifatida shakllandi. Mazkur davrda yarmarkalar oddiy savdo markazi bo'lib qolmay, imperiya boshqaruvi ostidagi hududlarda yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish hamda mahalliy jamiyatni yangi iste'mol va madaniy amaliyotlarga moslashtirish vositasi sifatida ham faoliyat yuritdi. Shu sababli ularning tarixiy ahamiyatini baholashda modernizatsiya va mustamlakachilik omillarini birgalikda tahlil qilish zarur. Toshkent yarmarkalari avvalo mintaqalararo aloqalarni kuchaytiruvchi institut sifatida faoliyat yuritgan. Savdo yig'inlariga Zarafshon vodiysi, Farg'ona, Sirdaryo, Dasht hududlari hamda Rossiyaning ichki guberniyalaridan kelgan savdogarlar jalb etilgan. Bu jarayon natijasida faqat mahsulotlar emas, balki kundalik hayot me'yorlari, iste'mol odatlari va madaniy qarashlar ham harakatlana boshlagan[5– C. 141-148]. Ayniqsa, turli hududlardan olib kelingan matolar, bezak buyumlari, maishiy jihozlar va bosma mahsulotlarning muomalaga kirishi shaharlik aholining estetik didi va turmush tarziga ta'sir ko'rsatgan. Biroq ushbu ochiqlik iqtisodiy tenglik asosida yuzaga kelmagan. Rossiya imperiyasi Turkistonni ichki bozor bilan bog'lash orqali o'lka iqtisodiyotini metropoliya ehtiyojlariga moslashtirishni maqsad qilgan. Savdo siyosatida bojxona imtiyozlari, transport infratuzilmasi va temiryo'l tarmoqlari aynan imperiya mahsulotlarining harakatini yengillashtirishga xizmat qilgan[6– C. 52-59.]. Oqibatda yarmarkalar orqali mahalliy ishlab chiqarish va tashqi sanoat mahsulotlari o'rtasida noteng iqtisodiy raqobat yuzaga kelgan.

Rossiya imperiyasi davrida Toshkent yarmarkalari iqtisodiy almashinuv markazi bo'lish bilan bir qatorda, imperiyaning xo'jalik va madaniy ta'sirini kengaytirish vositalaridan biri sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu jarayon oddiy savdo aloqalarining kengayishi bilan cheklanmagan, balki

mahalliy bozor tuzilmasi, iste'mol munosabatlari va kundalik turmush madaniyatini yangi iqtisodiy tartibga moslashtirish bilan bog'liq bo'lgan. Shu jihatdan yarmarkalar iqtisodiy integratsiya va madaniy o'zgarishlar bir vaqtda sodir bo'lgan murakkab ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'ladi. 1890-yilda tashkil etilgan Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasi hisobotida quyidagicha ta'kidlangan: "Ko'rgazmaning maqsadi faqat aholini mahalliy mahsulotlar bilan tanishtirishdan iborat bo'lmay, balki ishlab chiqarishning takomillashtirilgan usullari hamda Rossiya sanoati mahsulotlarini keng yoyishga ham qaratilgan"[7– B. 21.]. Ushbu ma'lumot yarmarkalar faqat mahalliy xo'jalik natijalarini namoyish etuvchi maydon bo'lmaganini, balki Rossiya sanoat mahsulotlari va ishlab chiqarish madaniyatini tarqatish vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Natijada yangi mahsulotlar bilan birga yangi iste'mol me'yorlari va xo'jalik yuritish tasavvurlari ham kirib kelgan. Shunga o'xshash holat Sirdaryo viloyati bo'yicha iqtisodiy hisobotlarda ham aks etadi. Ularda savdo hajmining ortishi mahalliy aholi orasida fabrika mahsulotlariga bo'lgan talabning kengayishi bilan birga kechgani qayd etilgan[8– C. 98.]. Bu holat iqtisodiy almashinuv faqat bozordagi tovar tarkibini emas, balki aholi turmush tarzi va iste'mol madaniyatini ham o'zgartira boshlaganini anglatadi. Mahsulot tanlash jarayoni asta-sekin iqtisodiy zaruratdan ijtimoiy va madaniy tanlovga aylangan. P.G. Galuzo Turkiston iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni tahlil qilar ekan, Turkiston asta-sekin Rossiya sanoat mahsulotlari uchun sotuv bozori va xomashyo manbaiga aylanganini ta'kidlaydi[9–C. 148.]. Bu yondashuv yarmarkalarning mustamlakachilik iqtisodiy tizimidagi o'rnini ochib beradi. Chunki savdo maydonlari orqali mahalliy iqtisodiyot tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi emas, balki tashqi ishlab chiqarish tizimini iste'mol qiluvchi va xomashyo yetkazib beruvchi modelga moslashtirilgan. Mazkur iqtisodiy jarayon madaniy oqibatlarni ham yuzaga keltirgan. D. Broverning fikricha, Turkistondagi iqtisodiy integratsiya ijtimoiy amaliyotlar va kundalik madaniyatdagi o'zgarishlar bilan birga kechgan. Bu esa yarmarkalar orqali kirib kelgan mahsulotlar oddiy savdo obyekti bo'lib qolmaganini, balki yangi did, yangi maishiy me'yor va yangi ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirganini anglatadi[10–P. 82.]. Shunday qilib, Toshkent yarmarkalari iqtisodiy manfaat va madaniy ta'sir o'zaro uyg'unlashgan tarixiy institut sifatida faoliyat yuritgan. Ular bir tomondan savdo, axborot va tajriba almashinuvi maydonini yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan imperiya iqtisodiy modeli va iste'mol madaniyatining mahalliy jamiyatga kirib borishiga xizmat qilgan.

Xususan, XIX asrning 1880-1900-yillariga kelib Rossiya markaziy sanoat rayonlarida ishlab chiqarilgan paxta gazlamalari, metall buyumlar, qand-shakar mahsulotlari, kerosin lampalari, samovarlar va boshqa tayyor mahsulotlar Turkiston bozorlarida tez sur'atda kengaya boshlagan³. Mahalliy hunarmandchilik ustaxonalari esa kichik hajmli ishlab chiqarish, yuqori tannarx va cheklangan kapital tufayli yangi sharoitga moslashishda qiyinchilikka duch kelgan. Bu holat ayniqsa to'qimachilik va metallga ishlov berish sohalarida sezilarli bo'lgan. Shu bilan birga,

iqtisodiy bosim faqat ishlab chiqarish tizimiga emas, balki kundalik madaniyatga ham ta'sir ko'rsatgan. Import qilingan mahsulotlarning ommalashuvi orqali yangi iste'mol me'yorlari shakllangan. Uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim uslublari va ichimlik iste'moli bilan bog'liq amaliyotlar asta-sekin o'zgargan[11– C.214-221]. Bu jarayon mahalliy an'analarning to'liq yo'qolishiga olib kelmagan bo'lsa-da, ularning bozor mexanizmlari orqali qayta talqin qilinishiga sabab bo'lgan.

Bunday vaziyatda yarmarkalar qarama-qarshi ikki funksiyani birlashtirgan tarixiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, ular bilim, tajriba va madaniy shakllarning tarqalishiga xizmat qilgan; ikkinchi tomondan esa iqtisodiy qaramlikni chuqurlashtiruvchi va tashqi ishlab chiqarish modelini mustahkamlovchi vositaga aylangan. Natijada Toshkent yarmarkalari modernizatsiya jarayonining tashuvchisi bo'lish bilan birga, Turkistonning Rossiya imperiyasi iqtisodiy makoniga integratsiyalashuvining amaliy mexanizmlaridan biri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Туркестанские ведомости. – 1890. – №12.
2. Туркестанские ведомости. – 1895. – №27.
3. Халфин Н.А. Россия и Средняя Азия. – М.: Наука, 1960
4. Туркестанские ведомости. – 1886. – №5
5. Гинзбург С.И. Экономическая политика России в Средней Азии во второй половине XIX века. – М., 1960
6. Пантусов Н.Н. Материалы к изучению торговли Туркестанского края. – Казань, 1901
7. Отчёт Туркестанской сельскохозяйственной и промышленной выставки 1890 года. – Ташкент, 1891.
8. Обзор Сыр-Дарьинской области за 1890 год. – Ташкент, 1891.
9. Галузо П.Г. Туркестан – колония. – Ташкент, 1935.
10. Brower D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London, 2003.